

**TA'LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK  
MUAMMOSINING O'RGANILGANLIK HOLATI**

*Begmatova Sevara Nematovna*

*[sevara.begmatova.1990@gmail.com](mailto:sevara.begmatova.1990@gmail.com)*

*Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Dunyoda aralash ta'lim sharoitida ta'lim oluvchilarning shaxsiy axborot xavfsizligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillarini aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda axborot bilan ishlash, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ochiq axborot muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning axborot-taxnologik kompetentligini rivojlantirishning didaktik texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ta'lim oluvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo'lajak pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.*

***Kalit so'zlar:** axborot, shaxs axborot xavfsizligi, kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, axborot-kommunikativ kompetentlik*

Respublikamizda ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, raqamli pedagogikani keng joriy etish orqali uzluksiz ta'lim jarayoni ishtirokchilarida axborot madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni

shakllantirish” uzluksiz ma’naviy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari, modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kompetensiyalar ta’limning maqsadini belgilashda mavjud an’anaviy tasavvurlar bilan kifoyalanmaslikni, ya’ni bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladigan tizim sifatida qarash bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etadi. Shu bilan birga mazkur tushuncha nazariya va amaliyotda yaqqol o‘z ta’rifiga ega emas. Uning quyidagicha asosiy tavsifiy jihatlari ko‘zga tashlanadi: “bilimlar tizimi”, faoliyat tajribasi va motivatsiya, muammolarga yechim topish qobiliyati (“sifatlar, xususiyatlar birligi”(E.F.Zeer [62], A.V.Xutorskiy), shaxsiy va kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlikning yuqori darajasi (O.Musurmonova).

Adabiyotlarni tahlil etish asosida biz “axborot kommunikativ kompetentlik” tushunchasining mohiyatini tayanch kompetensiyalarni tahlil qilish asosida aniqlashtirish mumkin, degan xulosaga keldik.

“Tayanch kompetensiyalar” atamasi ilk marta 1992 yilda Yevropa Kengashining “Evropada o‘rta ta’lim” loyihasida paydo bo‘lgan. “Evropa uchun asosiy kompetensiyalar” simpoziumi hujjatlarida zamonaviy bitiruvchilarning beshta asosiy kompetensiyalari ajratib ko‘rsatilgan:

1. Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda qatnashish va nizolarni zo‘ravonliksiz bartaraf etish qobiliyatlari).

2. Ko‘p madaniyatli jamiyatdagi hayot bilan bog‘liq kompetensiyalar (farqlarni qabul qilish, boshqalarga hurmat, o‘zga madaniyat, til, din kishilari bilan birgalikda faoliyat yuritish qobiliyati).

4. Axborotlashgan jamiyat bilan bog‘liq kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo‘lish, ularni qo‘llash imkoniyatlarini tushunish, ommaviy axborot vositalari va reklamalar orqali tarqatilayotgan ma’lumotlarga tanqidiy munosabat).

5. Kasbiy tayyorlash negizida uzluksiz ta'lim asosi sifatida butun hayot davomida bilim olish qobiliyati .

Tayanch (asosiy, universal) kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta'lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biridir.

E.F.Zeer, N.A.Muslimov, B.X.Xodjaevlarning tadqiqot ishlarida tayanch kompetensiyalarning mazmuni va vazifalari ochib berilgan bo'lib, barcha tayanch kompetensiyalar bir qator o'ziga xos belgilariga ega:

- tayanch kompetensiyalar ko'p funksiyali tavsifga ega. Agar ushbu kompetensiyalarga ega bo'lish kundalik, kasbiy yoki ijtimoiy hayotdagi muammolarni hal qilishga imkon bersa, kompetensiyalar muhim hisoblanadi. Ular asosiy maqsadlarga erishish va turli vaziyatlarda murakkab muammolarni hal qilish uchun o'zlashtirilishi kerak;

- tayanch kompetensiyalar fanga oid va fanlararo hisoblanib, ular turli vaziyatlarda (nafaqat ta'lim muassasasida, balki ishda, oilada, ijtimoiy-siyosiy sohada va boshqalarda) qo'llaniladi.

- tayanch kompetensiyalar yetarli darajadagi intellektual rivojlanishni talab qiladi: abstrakt, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini namoyon qilish, o'z mavqeini belgilash, o'z-o'zini baholash, tanqidiy fikr yuritish va boshqalar;

- tayanch kompetensiyalar ko'p qirrali bo'lib, ular turli xil aqliy jarayonlar va intellektual qobiliyatlar (tahliliy, tanqidiy va boshqalar), kommunikativ malakalar, shuningdek sog'lom fikrni o'z ichiga oladi.

Tayanch kompetensiyalarning o'ziga xosliklari tahlili ularning asosida kompetentlikning axborot-kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalar bilan bog'liq jihatlar mavjudligini ko'rsatdi. Aynan axborot-kommunikativ kompetentlik siyosiy-ijtimoiy, axborot bilan ishlash, hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Shaxs rivojining asosini tashkil etuvchi ilmiy qadriyatlar, qarashlar, tasavvurlar, ideallar yig'indisi sifatida axborotlar majmuini tashkil etuvchi g'oyaviy tizimlar (ideosferalar) tashkil etadi.

B.Xodjaev, M.Vahobov, M.Pardaevalar o'z izlanishlarida ta'kidlaydilarki, kompetensiyaviy yondashuv – bu ta'limiy natijalarga

erishishga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, unda natija sifatida o'zlashtirilgan ma'lumotlar miqdori emas, balki insonning turli murakkab vaziyatlarda samarali harakatlana olish qobiliyati muhim o'rin tutadi.

Axborot xuruji ta'siriga tushish turli shaxsda turlicha tarzda namoyon bo'ladi. Ba'zilar boshqalarning hatti harakatidagi g'arazli yolg'onni, aldovni haqiqatdan ajratib olishda o'ta ziyrak bo'ladi, ba'zilar esa bunday qobiliyatga ega bo'lmaydi. Bu hol psixologiyada turli diagnostik testlar bilan tasdiqlangan. Masalan, Kitelning «Shaxs rivojlanishining ikki qutibi nazariyasi»da yetarlicha yoritib berilgan, bunda shaxsning vaziyatlarni nechog'lik anglashi va ulardan qay darajada foydalanishi ko'rsatib berilgan bo'lib, ushbu nazariya fanda Makyavelli va Russo omili yoxud ziyraklik va go'llik omili ham deya nomlanadi. Ushbu nazariyaga asoslangan amaliy testlarda yuqori natija ko'rsatgan shaxslar vaziyatlarni sovuqonlik bilan baholovchi, mantiqan ish ko'ruvchi, o'z hissiyotlarini va ehtiroslarini boshqara oluvchi kishilardir. Ular har bir ishga sog'lom aql bilan mulohaza bilan yondashadilar. Shaxs axborot xavfsizligiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, R.Alimov, B.Ochilov, Sh.Suleymanovlar risolasida shaxs axborot xavfsizligi bu – uning axboriy makonining himoyalanganlik holati bo'lib, unda avvalo shaxs va bu orqali davlat manfaatlari shakllantiriladi, rivojlantiriladi; axborot aniq bir yo'nalish asosida (ya'ni, yaxlit tizimga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan tarzda) qo'llanilish holati; maxfiylik, yaxlitlik, ochiqlik xususiyatlariga zarar yetkazmaslik holatidir deyiladi.

Rus olimi A.Baranovning fikricha, – «shaxs axborot xavfsizligi – shaxs va uning hayotiy muhim milliy manfaatlarining, birinchidan axborotning to'liqsiz, kechikkan va ishonchsizligi yo salbiy axborot ta'sirida, ikkinchidan, axborot texnologiyalarining salbiy faoliyati, uchinchidan, axborotning ruxsatsiz tarqatilishi natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar ko'lamini minimal darajaga tushirish orqali himoyalanganlik darajasi holati» – deb ta'riflagan.

Norbert Viner birinchi bo'lib, axborotga jismoniy o'zgaruvchi miqdor sifatida qaraydi hamda unga shu nuqtai nazardan yondashish lozimligi taklifi bilan birinchilardan bo'lib chiqqan edi. Tadqiqotchi olimning ushbu masala xususida bildirgan qimmatli fikrlarga ko'ra: «jonli tabiat, jamiyat va mashinalardagi barcha

boshqaruv va aloqa jarayonlariga axborot uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari sifatida qaraladi. Biroq aloqaning mazmuni axborot qay tarzda – yozma, og‘zaki, rus, ingliz yoki boshqa tillarda, imo-ishora, shartli signal va hokazolar bilan – berilganiga bog‘liq emas» .

Xulosa qilganda, bugungi globallashgan olamda, xalqaro munosabatlar rivojlanayotgan sharoitda O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish va ta’limda o‘qitish metodologiyasiga yangicha yondashuv zarurati paydo bo‘ldi. Buning uchun ta’lim tizimida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasini pedagogik jihatdan chuqurroq tadqiq etish va pedagogik jarayonga rivojlangan davlatlar tajribasini olib kirish vazifalari paydo bo‘lmoqda. Axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi kunimizdagi eng dolzarb vazifa sifatida tasniflanmoqda. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish orqali ularga axboriy xurujlardan himoyalash ko‘nikmasini o‘stirish mumkinligi kelib chiqadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги 560-П-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 13 апрелдаги «Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-280-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

3. Алимов Р., Очилов Б., Сулейманов Ш. Анализ информации в международных отношениях. – Тошкент: УМЭД, 2007, – 245 б.

4. Анисимов В.В. Общие основы педагогики. – М.: Просвещение, 2006. 574 с.

5. Ахраров Б.С. “Ахборот хавфсизлиги” курсини ўқитишда талабалар мотивациясини ривожлантириш // Замоनावий таълим. 2018. №3. – Б.29-33.
6. Концепция виртуальных миров и научное познание. – СПб.: РХГИ, 2000. С.41.
7. Каримова В. Очиқ оммавий ахборот тизими шароитида шахсининг психологик ўзини-ўзи нимоялаши. /Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси жорий архиви, 2006.
8. Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Т., 2016. – 314 б.
9. Holkner Bernard, Geoff Romeo et al. Social media for collaborative learning: a review of school literature. – Australia: Faculty of Education, Monash University 2008. – 99 p.